

**O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti huzuridagi  
Statistika agentligi**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA  
ISTE‘MOL NARXLARI  
INDEKSI**


**2023- YIL  
SENTABR**

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO‘YICHA YIG‘MA ISTE‘MOL NARXLARI INDEKSI (INI)

**Iste‘mol narxlari indeksi (INI)** iste‘mol sektoridagi inflyatsion jarayonlarning asosiy indikatori sifatida alohida o‘rin egallab, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholashda hal qiluvchi ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.


## SENTABR OYIDAGI YIG‘MA INI, % da

o‘tgan oyga nisbatan




2023- yilning sentabr oyida oylik INI **101,2 %** ni, 2022- yilning dekabriga nisbatan esa **105,1 %** ni tashkil etdi. INI o‘rtacha oylik o‘shish sur‘ati joriy yilning yanvar-sentabrda **0,6 %** ga yetdi.

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




Yillik nisbatda (o‘tgan yilning sentabriga nisbatan) yig‘ma INI **109,2 %** darajasida qayd etildi.

o‘tgan yilning sentabriga nisbatan




Yanvar-sentabr oyidagi o‘rtacha oylik o‘shish sur‘ati, % da




## AYRIM XORIJIY DAVLATLARDAGI YIG‘MA INI

2023- yilning avgust oyida Yevropa Ittifoqining ayrim davlatlaridagi uyg‘unlashtirilgan (garmonik) indeks, o‘shish (pasayish) sur‘ati % da<sup>1</sup>



2023- yilning avgust oyida ayrim davlatlardagi yig‘ma INI, o‘shish (pasayish) sur‘ati % da<sup>2</sup>



<sup>1</sup>) [https://ec.europa.eu/eurostat/databrowser/view/PRC\\_HICP\\_MANR\\_\\_custom\\_3761882/bookmark/table?lang=en&bookmarkId=4ad27e6f-358a-4a3d-82a0-587d69a833eb](https://ec.europa.eu/eurostat/databrowser/view/PRC_HICP_MANR__custom_3761882/bookmark/table?lang=en&bookmarkId=4ad27e6f-358a-4a3d-82a0-587d69a833eb)

<sup>2</sup>) milliy statistika xizmatlarining rasmiy saytlaridan olingan ma’lumotlar asosida

INI turli shakllarda dunyoning ko‘plab davlatlarida, shu jumladan, qo‘shni davlatlarda ham hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi doirasida milliy INIdan tashqari uyg‘unlashtirilgan (garmonik) INI ham e’lon qilinib, mazkur indeks uyg‘unlashtirilgan ko‘rsatkichlarga muvofiq hisob-kitob qilinadi va shu sababdan Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi iste’mol inflyatsiyasini xalqaro taqqoslash uchun maqbul statistik asos hisoblanadi.


Respublikada INIning hisoblash 1994- yilda XVJning texnik ko‘magi ostida joriy qilingan. INIning shakllantirishga “Iste’mol narxlari indeksi bo‘yicha qo‘llanma: Nazariya va amaliyot” (XVJ, IHRT, Yevrostat, BMT, YIK, Jahon banki va XMT) tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan Tovarlar va xizmatlarning iste’mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste’mol narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom (Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 27- sentabrdagi 33-son qarori bilan yangi tahriri tasdiqlangan) asos bo‘lib xizmat qiladi <https://lib.stat.uz>.

# SENTABR OYIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR INI, % da

2023- yilning sentabrida tovarlar bo'yicha INI oy davomida **101,4 %** ni, xizmatlar bo'yicha esa **100,6 %** ni tashkil etdi. Joriy yil boshidan ushbu ko'rsatkich mos ravishda **105,3 %** va **104,7 %** ga yetdi. Yillik nisbatda ko'rsatkich **109,5 %** va **108,2 %** ni tashkil etdi.

## TOVARLAR

o'tgan oyga nisbatan



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

o'tgan yilning dekabriga nisbatan


108,5 106,8 105,9 109,1 105,3

o'tgan yilning sentabriga nisbatan

115,0 113,4 111,4 114,0 109,5

## XIZMATLAR

o'tgan oyga nisbatan



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

113,7 104,5 106,1 104,8 104,7

o'tgan yilning sentabriga nisbatan

119,5 105,9 108,7 106,4 108,2

Tasdiqlangan Uslubiy nizomga muvofiq, narxlarni ro'yxatga olish har oyning **10-** sanasidan **20-** sanasigacha amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni yig'ish shunday tashkil etilganki, bu vaqt oralig'ida narxlarni ro'yxatga olish har bir tovar va xizmat bo'yicha bir marta amalga oshiriladi va qo'shni davrlar uchun ro'yxatga olish oralig'i bir kalendar oyni tashkil qiladi. INIning hisoblashda faqatgina inflyatsiya omillarini aniqlash uchun assortiment va hududiy siljishlar omillarining ta'siri chiqarib tashlanadi.

# TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARINING INI, % DA


Jami **510**

Narxlar o'zgarishini kuzatish uchun shakllantirilgan **510 ta pozitsiyadan** iborat tovarlar va xizmatlar to'plami uchta yirik guruhga bo'lingan.




● oziq-ovqat mahsulotlari    ● nooziq-ovqat mahsulotlar    ● xizmatlar


## sentabr oyida o'tgan oyga nisbatan



## sentabr oyida o'tgan yilning dekabriga nisbatan




## sentabr oyida o'tgan yilning sentabriga nisbatan



2023- yilning sentabrida oziq-ovqat mahsulotlari qisqa muddatli INI **101,8 %** ni, nooziq-ovqat mahsulotlarda **101,0 %** ni va xizmatlar bo'yicha **100,6 %** ni tashkil etdi. O'tgan yilning dekabriga nisbatan INI oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha **105,6 %**, nooziq-ovqat mahsulotlarda **104,8 %** va xizmatlar bo'yicha **104,7 %** darajasida qayd etildi. Yillik nisbatdagi INI oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar uchun **111,0 %** va **107,6 %** darajasida, xizmatlar uchun **108,2 %** darajasida qayd etildi.


# TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARIDA 2023-YILNING YANVAR-SENTABRIDAGI INI, % DA

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI




Iste'mol narxlari-ning o'zgarishi kuzatuvlari doirasida har oyda **10 mingdan** ortiq savdo nuqtalari va xizmat ko'rsatish obyektlari kuzatiladi, **120 mingdan** ortiq narx kotirovkalari qayd etiladi.

## NOOZIQ-OVQAT MAHSULOTLAR



2023- yilning sentabrida oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha qisqa muddatli INI bir nechta omillar ta'sirida shakllandi. Donli ekinlar va yorma mahsulotlari va go'sht mahsulotlari narxlari sezilarli oshganligi qayd etildi. Ayrim meva-sabzavot mahsulotlari narxlari-ning pasayishi tutib turuvchi omil sifatida xizmat qildi.

## XIZMATLAR



Oziq-ovqat mahsulotlarining yillik INI joriy yilning to'qqiz oy davomida yanvar oyidagi 115,4 % dan iyul oyida 111,0 % gacha pasaydi. Xizmatlar bo'yicha mazkur ko'rsatkich-ning pasayishi sezilarsiz darajada bo'ldi.


- o'tgan oyga nisbatan
- o'tgan yilning dekabriga nisbatan
- o'tgan yilning mos oyiga nisbatan

sentabr


## YIG'MA INI

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI

o'tgan oyga nisbatan




2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.




2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

o'tgan yilning dekabriga nisbatan




2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.




2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

o'tgan yilning sentabriga nisbatan



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.




2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Meva-sabzavot mahsulotlari narxlari o'zgarishini hisobga olmaganda 2023- yilning sentabridagi qisqa muddatli INI **101,2%** ni tashkil etdi.

2022- yilning dekabriga nisbatan ushbu ko'rsatkich **105,5%** darajasida, 2022- yilning sentabriga nisbatan esa – **108,9%** darajasida qayd etildi.

# ASOSIY GURUHLARDA NARXLAR O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI TUZILMASI, f.d.\*

sentabr oyida o'tgan oyga nisbatan



2023- yilning sentabrida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi hisobiga oylik yig'ma INI **0,77 f.d.** pastladi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar va pullik xizmatlarning narx o'zgarishlari jami hisobda yig'ma ko'rsatkichni **0,47 f.d.** oshirdi.

INIning shakllantirish quyidagi ikkita ma'lumotlar manbasi asosida amalga oshiriladi:

- 1) uy xo'jaliklarida o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar ma'lumotlari asosida shakllanadigan aholining iste'mol xarajatlari tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 2) hududlar, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari, namuna tovarlar tanlanmasi doirasida narxlarni qayd etish ma'lumotlari.

Shunday qilib, har bir pozitsiyaning (bo'lim, guruh, aniq tovar yoki xizmat) yig'ma ko'rsatkich o'zgarishiga ta'siri pozitsiyaning narx o'zgarishlari va xarajatlar tarkibidagi salmoq vaznidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

\*) foiz darajasida




# ASOSIY GURUHLAR NARXLARI O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI TUZILMASI


Ta'siri, f.d.

Umumiy ta'sirdagi ulushi, % da

sentabr oyida o'tgan yilning dekabriga nisbatan



sentabr oyida o'tgan yilning sentabriga nisbatan



■ oziq-ovqat mahsulotlari

■ nooziq-ovqat mahsulotlar

■ xizmatlar

Oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga uchta yirik guruhlarining 2022- yilning dekabriga nisbatan yig'ma INI o'sish sur'atiga jami ta'sirining **45,0 %** dan ortig'i to'g'ri keldi (bir yil avval ushbu ko'rsatkich **52,2 %** ni tashkil etgan). Xizmatlar narxlarining ta'siri uchta asosiy guruhlar orasida eng past bo'ldi va uning ulushi **21,2 %** ni tashkil etdi.


Yillik nisbatdagi yig'ma INI o'sish sur'ati asosan oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi bilan bog'liq (**50,9 %**).

# MAQSADLAR BO'YICHA INDIVIDUAL ISTE'MOL TASNIFLAGICHI – 2018 (O'ZR MIIT – 2018) BO'LIMLARI BO'YICHA INI, % da

2021- yil yanvar oyidan boshlab, Davlat statistika qo'mitasi MDHga a'zo davlatlar orasida birinchilardan bo'lib iste'mol narxlari indeksi (INI)ni to'liq BMTning Classification of Individual Consumption According to Purpose (COICOP) 2018 xalqaro standartiga asoslangan, Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi – 2018 (MIIT – 2018) asosida shakllantirishni joriy etdi. O'zR MIIT – 2018 statistika faoliyati sohasida foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lib, uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlarini 13 ta bo'limga guruhlashtirishni nazarda tutadi.

sentabr oyida o'tgan oyga nisbatan\*

## Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar




## Spirтли ichimliklar va tamaki mahsulotlari



## Kiyim va poyabzal




## Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari



## Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko'rsatish



## Sog'liqni saqlash




\* Statistik maqsadlarda 2020- yil uchun narxlar indeksi O'zR MIIT–2018 bazasi tuzilmasida qayta hisob-kitob qilingan.

sentabr oyida o‘tgan oyga nisbatan


### Transport




### Axborot va aloqa




### Dam olish, sport va madaniyat




### Ta‘lim sohasidagi xizmatlar



### Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari



### Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar



### Maishiy tovarlar va xizmatlar va boshqa tovarlar va xizmatlar



2023- yilning sentabrida bo‘limlar kesimidagi qisqa muddatli INI diapazoni **100,5 %** dan (“Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” IV bo‘lim) **101,9 %** gacha (“Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” I bo‘lim) chegarada joylashdi.

sentabr oyida o'tgan yilning dekabriga nisbatan

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar



Spirтли ichimliklar va tamaki mahsulotlari



Kiyim va poyabzal



Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari



Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko'rsatish



Sog'liqni saqlash



Transport




Axborot va aloqa



sentabr oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan


Dam olish, sport va madaniyat



Ta‘lim sohasidagi xizmatlar




Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari



Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar



Maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlar



2023- yilning yanvar-sentabrda bo‘limlar kesimidagi INI diapazoni **99,8 %** dan (“Axborot va aloqa” VIII bo‘lim) **113,6 %** gacha (“Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari” XI bo‘lim) oraliqda joylashdi.

**IZOH:** O‘zR MIIT – 2018 tasniflagichi 2021- yildan INIning hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistik maqsadlarda 2021- yilning uzoq muddatli narxlar indeksini shakllantirish uchun 2020- yildagi qisqa muddatli INI O‘zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo‘yicha qayta hisob-kitob qilingan.

# O‘ZR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI BO‘YICHA INI, % da

sentabr oyida o‘tgan yilning sentabriga nisbatan

I. OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR		II. SPIRTLII ICHIMLIKLAR VA TAMAKI MAHSULOTLARI		III. KIIYIMLAR VA POYABZAL	
2021- yil	<b>114,5</b>	2021- yil	<b>111,1</b>	2021- yil	<b>106,1</b>
2022- yil	<b>116,4</b>	2022- yil	<b>110,4</b>	2022- yil	<b>109,0</b>
2023- yil	<b>110,6</b>	2023- yil	<b>110,9</b>	2023- yil	<b>106,5</b>

IV. TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG‘I TURLARI		V. UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI, MAISHIIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH		VI. SOG‘LIQNI SAQLASH	
2021- yil	<b>105,2</b>	2021- yil	<b>107,9</b>	2021- yil	<b>109,6</b>
2022- yil	<b>104,1</b>	2022- yil	<b>111,5</b>	2022- yil	<b>112,8</b>
2023- yil	<b>105,4</b>	2023- yil	<b>108,5</b>	2023- yil	<b>113,7</b>

VII. TRANSPORT		VIII. AXBOROT VA ALOQA		IX. DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT	
2021- yil	<b>112,0</b>	2021- yil	<b>103,6</b>	2021- yil	<b>110,0</b>
2022- yil	<b>111,5</b>	2022- yil	<b>102,7</b>	2022- yil	<b>113,1</b>
2023- yil	<b>110,2</b>	2023- yil	<b>99,3</b>	2023- yil	<b>110,3</b>

X. TA‘LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR		XI. RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI		XII. SUG‘URTALASH VA MOLIYAVIIY XIZMATLAR	
2021- yil	<b>112,1</b>	2021- yil	<b>115,2</b>	2021- yil	<b>100,5</b>
2022- yil	<b>102,5</b>	2022- yil	<b>121,0</b>	2022- yil	<b>104,1</b>
2023- yil	<b>102,7</b>	2023- yil	<b>121,9</b>	2023- yil	<b>102,9</b>


XIII. MAISHIIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR	
2021- yil	<b>111,2</b>
2022- yil	<b>114,0</b>
2023- yil	<b>110,4</b>

2023- yilning sentabr oyida eng past yillik INI axborot va aloqa sohasidagi tovarlar va xizmatlarda (**99,3 %**) kuzatilgan bo‘lsa, restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari bo‘yicha INI **121,9 %** darajasida qayd etildi.


# “OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I), % da

sentabr oyida o‘tgan oyga nisbatan


Donli ekinlar va yorma mahsulotlari




Go‘sh va go‘sh mahsulotlari




Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari




Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum




Yog‘lar va moylar




Mevalar va yong‘oqlar




Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar




Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari



Spirtsiz ichimliklar



2023- yilning sentabrda “Go‘sh mahsulotlari” (**101,1 %**), “Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari” (**99,6 %**), “Yog‘lar va moylar” (**100,3 %**), “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” (**100,8 %**), “Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar” (**100,2 %**), “Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari” (**100,2 %**) guruhlaridagi qisqa muddatli INI 2022- yilning sentabridagi mos ko‘rsatkichdan past bo‘ldi.

2023- yilning sentabrda donli ekinlar va yorma mahsulotlari bo‘yicha qisqa muddatli INI **105,0 %** ni, go‘sh mahsulotlarida **101,1 %** ni, mevalar va yong‘oqlarda **102,3 %** ni tashkil etdi.


# “OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLER” BO‘LIMI (I), % da

sentabr oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan


## Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



## Go‘sh t mahsulotlari



## Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari



## Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum




## Yog‘lar va moylar




## Mevalar va yong‘oqlar



## Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar



## Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



## Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari



## Spirtsiz ichimliklar



Yog‘-moy mahsulotlarining joriy yilning sentabridagi o‘rtacha narxlar darajasi 2022- yilning yakuniga nisbatan pastligicha qoldi. “Yog‘lar va moylar” guruhi bo‘yicha INI 2023- yilning yanvar-sentabrida **91,8 %** ni tashkil etdi.


Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar bo‘yicha INI joriy yilning yanvar-sentabrida **100,0 %** lik chegara-dan **7,3** foiz bandga past darajada qayd etildi.



# “OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLER” BO‘LIMI (I), % da


sentabr oyida o‘tgan yilning sentabriga nisbatan

## Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



2021- y. 2022- y. 2023- y.


## Go‘sh t mahsulotlari



2021- y. 2022- y. 2023- y.




## Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari



2021- y. 2022- y. 2023- y.


## Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum



2021- y. 2022- y. 2023- y.




## Yog‘lar va moylar




2021- y. 2022- y. 2023- y.

## Mevalar va yong‘oqlar




2021- y. 2022- y. 2023- y.

## Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar




2021- y. 2022- y. 2023- y.

## Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar




2021- y. 2022- y. 2023- y.

## Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari



2021- y. 2022- y. 2023- y.

## Spirtsiz ichimliklar




2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yilning sentabrida “Go‘sh t mahsulotlari”, “Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum” va “Mevalar va yong‘oqlar” guruhlaridan boshqa barcha guruhlarda yillik nisbatdagi INI o‘tgan yilning sentabridagi mos ko‘rsatkichga qaraganda past darajada bo‘ldi.


Shu bilan birga, yog‘-moy mahsulotlari narxlarining o‘rtacha darajasi 2022- yilning sentabridagi ko‘rsatkichdan pastligicha qoldi.

# 2023- YILNING SENTABRIDA ALOHIDA TURDAGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI INI, % da


## Guruch va guruch oqshog'i




## Bug'doy uni




## Suyakli mol go'shti




## Qo'y go'shti




## Sut




## Tuxum



## Kungaboqar yog'i





## Shakar




## 2023- YILNING SENTABRIDA ALOHIDA TURDAGI MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI INI, % da

o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning sentabriga nisbatan




orange narxlari oshgan tovarlar

green narxlari pasaygan tovarlar

Joriy yilning sentabr oyida bir qator sabzavotlar narxida pasayish kuzatildi. Narxlarida pasayish kuzatilgan tovarlarning INI diapazoni **79,6 %** dan (baqlajon) **97,2 %** gacha (banan) oraliqda joylashdi.

2022- yilning dekabriga nisbatan kuzatiladigan sabzavot turlari orasida baqlajon narxida eng yuqori pasayish kuzatildi. Ushbu mahsulot yillik nisbatda ham eng past INI qayd etilgan mahsulot bo'ldi.

**2023- YIL SENTABR OYIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTLICHIMLIKLAR ASOSIY GURUHLARIDAGI NARXLAR O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH (PASAYISH) SUR'ATIGA TA'SIRI, f.d.da**



“Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) bo'limiga taalluqli mahsulotlar orasida donli ekinlar va yorma mahsulotlari va go'sht mahsulotlari narxlarining oshishi boshqa mahsulotlarga qaraganda oylik yig'ma INI o'sish sur'atiga yuqoriroq ta'sir ko'rsatdi. Ushbu ikkita guruhning jami ta'siri **0,53 f.d.** ga yetdi. Sut mahsulotlari narxlarining oshishi yig'ma ko'rsatkichni **0,09 f.d.** o'sishini ta'minladi.

2022- yilning dekabriga nisbatan yig'ma INI o'sish sur'ati tuzilmasida donli ekinlar va yorma mahsulotlari **(+0,82 f.d.)**, go'sht mahsulotlari **(+0,74 f.d.)** hamda mevalar va yong'oqlar **(+0,45 f.d.)** ta'siri salmoqli bo'ldi. Yog'-moy mahsulotlari hamda sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar narxining pasayishi yig'ma INI **0,55 f.d.** qisqarishiga sabab bo'ldi.

# “SPIRTLICHIMLIK, TAMAKI MAHSULOTLARI” BO‘LIMI (II), % da


sentabr

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning sentabriga nisbatan

## SPIRTLICHIMLIK



## TAMAKI MAHSULOTLARI



o‘tgan oyga nisbatan				o‘tgan yilning dekabriga nisbatan				o‘tgan yilning sentabriga nisbatan		
2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>VINO</b>										
100,3	101,9	100,5	100,3	103,5	105,5	105,3	106,0	107,8	107,2	108,6
<b>AROQ</b>										
100,5	102,0	101,5	100,3	105,6	107,7	109,1	107,4	112,2	113,6	110,6
<b>KONYAK</b>										
100,3	102,8	100,6	100,5	103,7	108,6	104,8	107,7	110,4	106,3	109,9
<b>PIVO</b>										
100,4	100,5	100,8	100,3	105,0	104,8	107,6	106,2	106,0	109,4	109,3
<b>SIGARET</b>										
100,6	100,5	100,6	102,2	109,5	110,1	106,2	110,2	112,9	108,0	113,5
<b>BOSHQA TAMAKI MAHSULOTLARI</b>										
101,9	100,1	100,3	102,4	105,8	111,2	106,4	107,7	115,1	107,4	112,2

# “KIYIM VA POYABZAL” BO‘LIMI (III), % da



sentabr

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning sentabriga nisbatan

## KIYIM



## POYABZAL



o‘tgan oyga nisbatan				o‘tgan yilning dekabriga nisbatan				o‘tgan yilning sentabriga nisbatan		
2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>KIYIM TIKISH UCHUN MATERIALLAR</b>										
101,8	100,4	101,2	101,1	105,5	102,5	106,8	103,1	106,0	109,2	106,2
<b>USTKI KIYIM</b>										
101,1	100,5	100,7	100,8	105,1	102,6	105,8	103,3	106,2	109,0	106,6
<b>BOSHQA KIYIM PREDMETLARI VA FURNITURA</b>										
100,6	100,4	100,6	100,7	103,8	102,3	105,8	102,8	105,5	108,9	105,1
<b>KIYIMLARNI TOZALASH, TA‘MIRLASH, TIKISH VA IJARAGA BERISH</b>										
101,1	101,6	101,2	100,9	107,1	106,7	108,2	107,6	111,3	113,2	113,1
<b>BOTINKALAR, TUFLILAR VA BOSHQA POYABZALLAR</b>										
100,9	100,4	100,6	100,9	103,6	102,3	106,4	102,8	105,2	108,7	105,8
<b>POYABZALLARNI TOZALASH, TA‘MIRLASH VA IJARAGA BERISH</b>										
101,5	101,3	101,2	101,5	112,6	107,1	107,8	109,5	114,6	113,6	117,1

Joriy yilning sentabrda “Kiyim va poyabzal” (III) bo‘limida INI tebranishlari **99,9 %** dan (erkaklar va o‘gil bolalar uchun futbolkalar) **102,1 %** gacha (bolalar uchun krossovkalar va shunga o‘xshash poyafzallar) atrofida joylashdi.

# “TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG‘I TURLARI” BO‘LIMI (IV), % da


sentabr

o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan


o‘tgan yilning sentabriga nisbatan

## TURAR JOY UCHUN AMALDAGI IJARA HAQI\*




\*) kuzatuvga 2021- yilda kiritilgan


## TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH, TA‘MIRLASH VA QO‘RIQLASH



## SUV TA‘MINOTI VA TURAR JOYLARNI SAQLAB TURISH BILAN BOG‘LIQ BOSHQA XIZMATLAR



## ELEKTR, GAZ VA YONILG‘INING BOSHQA TURLARI



“Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” (IV) bo‘limida asosiy turdagi kommunal xizmatlar bo‘yicha tariflar joriy yilning sentabrida barqarorlikni saqlab qoldi. Ushbu fonda qator hududlarda turar joy ijarasi uchun to‘lov qiymatida o‘shish kuzatildi (respublika bo‘yicha o‘rtacha **2,4%**).

Turar joylarga xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlash uchun materiallar va xizmatlar bo‘yicha qisqa muddatli INI joriy yilning sentabrida mos ravishda **100,8%** va **101,7%** ni tashkil etdi.

# “UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI, MAISHIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA KUNDALIK XIZMAT KO‘RSATISH” BO‘LIMI (V), % da

sentabr

o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning sentabriga nisbatan

## MEBEL VA UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI




2020- yil	100,7
2021- yil	100,7
2022- yil	100,7
2023- yil	100,8



## MAISHIY USKUNALAR



2020- yil	100,5
2021- yil	101,2
2022- yil	100,6
2023- yil	101,1



## UY XO‘JALIKLARIDA ISHLATILADIGAN TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI




2020- yil	101,2
2021- yil	100,7
2022- yil	101,1
2023- yil	100,9



## KUNDALIK TURMUSHDA VA BOG‘DORCHILIKDA ISHLATILADIGAN ASBOBLAR VA MOSLAMALAR



2020- yil	100,5
2021- yil	100,7
2022- yil	100,8
2023- yil	100,9



## SHISHA IDISHLAR, OVQATLANISH UCHUN ASBOBLAR VA UY-RO‘ZG‘OR ANJOMLARI




2020- yil	100,7
2021- yil	100,9
2022- yil	100,7
2023- yil	101,0



## UY XO‘JALIGINI YURITISH BILAN BOG‘LIQ HOLDA ISHLATILUVCHI TOVARLAR VA XIZMATLAR



2020- yil	101,0
2021- yil	100,9
2022- yil	100,9
2023- yil	101,0



Joriy yilning sentabrida “Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish” (V) bo‘limida qisqa muddatli INI tebranishlari **100,2%** dan (kir yuvish kukuni) **104,7%** gacha (gugurt) oraliqda joylashdi.



## “SOG‘LIQNI SAQLASH” BO‘LIMI (VI), % da


sentabr

o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning sentabriga nisbatan


### DORI VOSITALARI VA TIBBIYOT MAHSULOTLARI




### AMBULATORIYADA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



### STATSIONARDA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



### SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI BOSHQA XIZMATLAR



“Sog‘liqni saqlash” (VI) bo‘limiga kiruvchi tovarlar bo‘yicha joriy yilning sentabr oyidagi qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **100,0 %** dan (tibbiy diagnostika mahsulotlari) **101,8 %** gacha (antigistamin doilar) oraliqda joylashdi.

Bundan tashqari, “Dori vositalari va tibbiy mahsulotlar”, “Ambulatoriyada davolash xizmatlari” va “Sog‘liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar” guruhlarida joriy yilning sentabridagi yillik nisbatdagi INI o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatkichdan past bo‘ldi.

# “TRANSPORT” BO‘LIMI (VII), % da


sentabr

o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning sentabriga nisbatan


## TRANSPORT VOSITALARINI SOTIB OLISH




## SHAXSIY TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH



## YO‘LOVCHI TASHISH TRANSPORTI XIZMATLARI



## TOVARLARNI TASHISH BO‘YICHA XIZMATLAR



2023- yilning sentabrida o‘tgan oydagi kabi respublikaning barcha hududlarida benzin narxlari oshdi. Ushbu yoqilg‘i turida INI mamlakat bo‘yicha o‘rtacha **102,3%** ni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari uchun gaz yoqilg‘isi bo‘yicha qisqa muddatli INI joriy yilning sentabrida **102,4%** ni, shu jumladan, metanda **102,9%**, propanda **101,0%** ni tashkil etdi.

Transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar oy davomida **101,4%** ga yetdi.

Havo transportida yo‘lovchi tashish xizmatlari bo‘yicha qisqa muddatli INI sentabr oyida **98,7%** darajasida qayd etildi. Bu holat milly valyuta kursining yevroga nisbatan o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish xizmatlari bo‘yicha INI 2023- yilning avgustiga nisbatan **99,4%** ni tashkil etdi.



sentabr

o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning sentabriga nisbatan


### AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA USKUNALARI



Axborot va kommunikatsiya uskunalari bo‘yicha qisqa muddatli INI joriy yilning sentabrida **100,5%** darajasida qayd etildi.

Mazkur guruhga kiruvchi tovarlarning qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni joriy yilning sentabr oyida **100,2%** dan (kompyuter va planshet) **101,1%** gacha (mustahkam o‘rnatilgan telefon uskunasi) oraliqda joylashdi.

### AXBOROT VA ALOQA SOHASIDAGI XIZMATLAR



Axborotlashtirish sohasida kuzatiladigan asosiy xizmatlardagi barqarorlik fonida joriy yilning sentabr oyida faqatgina axborot va kommunikatsiya uskunalari ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar narxlarida o‘zgarish qayd etilib, qisqa muddatli INI **101,6%** ga yetdi.

# “DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT” BO‘LIMI (IX), % da

2023- yilning sentabr oyi davomida **0,8 %** ga narxlarning pasayishi ayrim turdagi kanselyariya tovarlari (maktab daftarlari, A4 formatidagi qog‘oz) narxlarida qayd etildi.

Ushbu bo‘limdagi tovarlar va xizmatlar narxlarining oshishi **0,3 %** dan (ryukzaklar) **2,5 %** gacha (daftar, kitob va hujjatlar uchun muqovalar) oraliqda qayd etildi.




o‘tgan oyga nisbatan


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning sentabriga nisbatan


## DAM OLISHNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR



## MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR




## KOMPLEKS DAM OLISHNI TASHKIL ETISH




## BOG‘DORCHILIK MAHSULOTLARI, UY HAYVONLARI



## GAZETALAR, KITOBLAR VA KANSELYARIYA TOVARLARI



## DAM OLISH UCHUN BOSHQA TOVARLAR



# “TA’LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR ” BO‘LIMI (X), % da



sentabr

o‘tgan oyga nisbatan



o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning sentabriga nisbatan



## MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM



## OLIY TA’LIM



## BOSQICHLARGA BO‘LINMAGAN TA’LIM



o‘tgan oyga nisbatan				o‘tgan yilning dekabriga nisbatan				o‘tgan yilning sentabriga nisbatan		
2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotlari (MTT) xizmatlari</b>										
-	100,5	101,0	100,8	-	103,7	103,9	102,6	-	104,9	103,2
<b>Repetitorlar xizmatlari</b>										
100,5	103,6	100,1	101,6	102,2	109,0	104,1	104,3	112,0	106,6	107,2
<b>Chet tili kurslari va shunga o‘xshash kurslarda o‘qish</b>										
100,3	105,8	100,8	101,6	102,3	110,5	107,7	103,2	115,7	110,3	107,8

Izoh: xususiy MTT xizmatlarining narx o‘zgarishi kuzatuvlari 2021- yildan tashkil etilgan.

Davlat MTT hamda oliy ta’lim sohasidagi xizmatlarning narxlari darajasida joriy yilning sentabr oyida o‘zgarishlar kuzatilmadi.

# “RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI” BO‘LIMI (XI), % da


sentabr

o‘tgan oyga  
nisbatan


o‘tgan yilning  
dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning  
sentabriga nisbatan

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA ICHIMLIKLARNI YETKAZIB BERISH BO‘YICHA XIZMATLAR



## MEHMONXONALAR XIZMATLARI



o‘tgan oyga nisbatan				o‘tgan yilning dekabriga nisbatan				o‘tgan yilning sentabriga nisbatan		
2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Kafelardagi tayyor taomlar</b>										
101,2	101,8	103,1	100,7	109,9	108,2	116,0	113,7	113,8	122,9	122,4
<b>Oshxonalar, kafeteriyalar va boshqa oshxonalaridagi tayyor taomlar</b>										
101,5	101,5	103,2	100,8	109,5	108,9	115,1	113,2	116,1	121,2	122,3
<b>Otellar, mehmonxonalar va shunga o‘xshash tashkilotlar xizmatlari</b>										
101,4	103,1	101,1	100,4	108,1	109,8	108,8	108,7	110,5	109,1	117,8
<b>Dam olish maskanlari va shunga o‘xshash tashkilotlar xizmatlari</b>										
100,2	100,7	100,0	100,0	115,9	118,2	115,3	124,3	121,0	115,3	124,9

Umumiy ovqatlanish sohasida joriy yilning sentabr oyida to‘qqizta hududda narxlar o‘sishi kuzatilib, qisqa muddatli INI **100,1 %** dan **102,5 %** gacha chegarada qayd etildi.

Mehmonxonalar xizmati narxlari respublikaning uchta hududida (**0,4-2,0 %** chegarasida) narxlar oshgan bo‘lsa, dam olish markazlari xizmati narxlari barqarorlikni saqlab qoldi.

# “SUG‘URTALASH VA MOLIYAVIY XIZMATLAR” BO‘LIMI (XII), % da



## SUG‘URTA

sentabr	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	o‘tgan yilning sentabriga nisbatan
2020- yil	100,0	100,0	
2021- yil	100,0	100,0	100,0
2022- yil	100,0	100,0	100,0
2023- yil	100,0	100,0	100,0



## MOLIYAVIY XIZMATLAR

sentabr	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	o‘tgan yilning sentabriga nisbatan
2020- yil	100,2	106,3	
2021- yil	100,0	100,4	101,0
2022- yil	100,0	108,1	108,5
2023- yil	101,0	104,1	104,9

Joriy yilning sentabrida kuzatildigan sug‘urta xizmatlari bozorida narxlar darajasi barqarorlikni saqlab qoldi.

Moliyaviy xizmatlar orasida narxlar oshishi banklar muassasalari xizmatlari (**102,1 %**), pul o‘tkazmalari

(**100,8 %**) va mikromoliya tashkilotlari xizmatlarida (**100,5 %**) qayd etildi.

# “MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, IJTIMOIIY HIMOYA VA TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR” BO‘LIMI (XIII), % da


o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning sentabriga nisbatan

sentabr

## MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR




Joriy yilning sentabrida guruhga kiruvchi tovarlar va xizmatlar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **100,1 %** dan (hammom va dushxonalar xizmatlari) **102,1%** gacha (erkaklar sartaroshxonalar xizmatlari) oraliqda joylashdi.

## SHAXSIY FOYDALANISH UCHUN BOSHQA PREDMETLAR



Ushbu guruhga kiruvchi tovarlar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni joriy yilning sentabrida **100,2 %** dan (quyoshdan saqlovchi ko‘zoynaklar) **102,1 %** gacha (zargarlik xizmatlari) oraliqda joylashdi.

## BOSHQA XIZMATLAR



Boshqa xizmatlar bo‘yicha 2023- yilning sentabrida narxlar oshishi nusxa ko‘chirish bo‘yicha (**101,5 %**) va diniy xizmatlarda (**100,4 %**) qayd etildi.



Oylik yig‘ma INI o‘zgarishiga ta’siri, f.d.

+1,24



Yig‘ma ko‘rsatkich o‘zgarishiga har bir pozitsiyaning (bo‘lim, guruh, muayyan tovar yoki xizmat) ta’sir ulushi va hissasi pozitsiyalarning narxlar o‘zgarishlari va aholi xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

**Narx indeksi salmog‘i** – narx indeksining shakllanishida qatnashuvchi o‘lcham bo‘lib, ular yordamida:

- kuzatilayotgan hodisalarning umumiy yig‘indisidagi har bir aniq tarkibiy qismning mazmuni ifodalanadi;

- avvaldan o‘zaro solishtirib bo‘lmaydigan birlamchi tarkibiy qismlar taqqoslanadigan shaklga keltiriladi;

- qo‘llanilayotgan tasniflagichning barcha bosqichlari bo‘yicha o‘zaro solishtirilishi mumkin bo‘lgan tarkibiy qismlar ketma-ketligi umumlashtiriladi va o‘rganilayotgan hodisa bo‘yicha narx o‘zgarishining umumiy mohiyati aniqlanadi.



2022- yilning dekabriga nisbatan yig‘ma INI umumiy o‘shish sur‘atiga ta‘sir tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar ta‘siri ulushi uchdan bir qismdan ko‘proqni tashkil etdi. Ularning ta‘siri **2,10 f.d.**ni, yoki **40,9 %** ni tashkil etdi. “Axborot va aloqa” bo‘limida narxlarning pasayishi tutib turuvchi omil bo‘ldi.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarining oshishining o‘tgan yilning sentabriga nisbatan yig‘ma ko‘rsatkich o‘shish sur‘atiga ta‘siri ulushi **46,1 %** ni tashkil etdi. Joriy yilning yanvar-sentabridagi INIdagi kabi aloqa xizmatlari narxlarining pasayishi yillik INIni ham tutib turuvchi omil sifatida xizmat qildi.

